сотрудничество этих двух институтов является залогом успешного воспитания ребенка, который будет уверенным в себе, ответственным и готовым к взаимодействию с окружающим миром.

Процесс формирования личности младшего школьника является сложным и многоэтапным. Влияние семьи и школы на развитие ребенка невозможно переоценить. Семья закладывает фундамент моральных ценностей и эмоциональной устойчивости, а школа развивает социальные навыки и способствует личностному росту в условиях коллективной деятельности. Для эффективного воспитания необходимо, чтобы оба института работали скоординированно, создавая для ребенка единое пространство уважения, доверия и поддержки. Сотрудничество школы и семьи – это ключ к успешному формированию достоинства личности младшего школьника, что, в свою очередь, влияет на его способность быть уверенным, ответственным и гармонично развитым человеком в будущем.

**Литература**


1. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – Москва: «Просвещение», 1968. –С. 464.
2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. под ред. В.В.Давыдова. – Москва: «Педагогика-Пресс», 1999. – С. 536.
3. Запорожец А.В. Избранные психологические труды: в 2 т. Т. 1. Психическое развитие дошкольника. под ред. В.В.Давыдова, В.П.Зинченко. – Москва: «Педагогика», 1986. – С. 320.
4. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. – Москва: «Международная педагогическая академия», 1994. –С. 680.
5. Ямбург Е.А. Профессионализм педагога. Ответы на вызовы современности. Просвещение: Педагогический нон-фикшн https://www.labirint.ru/authors/105754/



**РЕЗЮМЕ**. Мақола бошланғич синф ўқувчиси шахсини шакллантиришда оила ва мактабнинг асосий ролини ўрганишга, уларнинг ҳиссий, ижтимоий, когнитив ва қадрият ривожланишига таъсирини таҳлил қилишга бағишланган. Тадқиқотда боланинг баркамол ўсиши учун педагогик ҳамкорлик ва ягона таълим муҳитини яратиш муҳимлиги, шунингдек, оилани ижтимоий-педагогик қўллаб-қувватлаш зарурлиги таъкидланган.

**РЕЗЮМЕ.** Статья посвящена изучению ключевой роли семьи и школы в формировании личности младшего школьника, анализируя их влияние на эмоциональное, социальное, познавательное и ценностное развитие. Исследование акцентирует важность педагогического сотрудничества и создания единой воспитательной среды для гармоничного роста ребенка, а также необходимость социально-педагогической поддержки семьи.

**SUMMARY.** The article is devoted to studying the main role of the family and school in the formation of the personality of a primary school student, analyzing their impact on emotional, social, cognitive and value development. The study emphasizes the importance of pedagogical cooperation and the creation of a unified educational environment for the harmonious development of the child, as well as the need for socio-pedagogical support of the family.


# O‘QUV-METODIK TA’MINOTLARGA ILG‘OR XALQARO PLATFORMALARNI INTEGRATSIYA QILISh USULLARI


**A.Kenesbayev** – *assistent o‘qituvchi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*



**Tayanch so‘zlar:** xalqaro platformalar, Coursera, EdX, Moodle, Google Classroom, interaktiv vositalar, raqamli ta’lim, o‘quv-metodik ta’minot, multimedia, informatika, raqamlashtirish.

**Ключевые слова:** международные платформы, Coursera, EdX, Moodle, Google Classroom, интерактивные инструменты, цифровое образование, учебно-методическое обеспечение, мультимедиа, информатика, оцифровка.

**Key words:** international platforms, Coursera, EdX, Moodle, Google Classroom, interactive tools, digital education, educational and methodological support, multimedia, informatics, digitization.


**Kirish.** Zamonaviy ta’lim jarayonlarining globallashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanishi va pandemiya kabi global chaqiriqlar onlayn ta’lim vositalariga talabni oshirib yubordi. Ayniqsa, oliy va umumta’lim muassasalari hamda uzluksiz ta’lim tizimi zamonaviy platformalar orqali interaktiv o‘qitish metodlarini joriy etish zaruriyatini his etmoqda [1]. Ilg‘or xalqaro ta’lim platformalari (masalan, Coursera, EdX, Moodle, Google Classroom va h.k.) o‘quv-metodik ta’minotni yangicha yondashuvlar orqali boyitishga xizmat qilmoqda. Biroq, bunday platformalarni ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun pedagoglar, metodistlar va ta’lim boshqaruvchilari tomonidan tizimli yondashuv, ishonchli infrastrukturani yaratish hamda metodik qo‘llab-quvvatlash masalalariga e’tibor qaratish zarur [2].

Mazkur ilmiy maqolada o‘quv-metodik ta’minotlarga ilg‘or xalqaro platformalarni integratsiya qilish usullari, bu jarayonda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan pedagogik yondashuvlar, raqamli kompetensiyalar va metodik qo‘llanmalar xususida so‘z boradi. Maqolada tadqiqot natijalari bayon qilinadi va olingan xulosalar asosida amaliy tavsiyalar beriladi [3].

**Metodologiya.** *Adabiyot sharhi:* Mazkur tadqiqot ilg‘or xalqaro platformalarning (Coursera, EdX, FutureLearn, Google Classroom, Moodle va b.) xususiyatlari, texnik talablari, metodik qo‘llanmalarini o‘rganish maqsadida xorijiy va mahalliy ilmiy maqolalar, Mirzaxmedov X., Bates T., va Anderson T. tadqiqotlari va Coursera, EdX, FutureLearn, Google Classroom, Moodle rasmiy veb-sahifalari ko‘rib chiqildi.

*Metodik qo‘llanmalar tayyorlash:* Qoraqalpog’iston Respublikasi, Xorazm viloyati va Toshkent shaharlarining umumta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish jarayonida 80 nafar o‘qituvchi va 100 nafar o‘quvchi o‘rtasida savol-javob tashkil etildi. Asosiy maqsad - ilg‘or platformalarda ishlash tajribasi, ehtiyoj va muammolarni aniqlash [4].

*Kuzatuv va tahliliy tadqiqot:* Ikki oy davomida Moodle, Google Classroom va Coursera platformalarida o‘quv mashg‘ulotlarining tashkiliy va metodik jihatlari kuzatildi. Kuzatuv jarayonida platformalarning samaradorligini aniqlash uchun mashg‘ulotdagi interaktivlik, o‘quvchilarning qatnashish faolligi, baholash jarayonining soddaligi va o‘qituvchining metodik yondashuvi baholandi.

*Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish:* So'rovnoma natijalari, platformalar faoliyati haqidagi xulosa va baholar SPSS dasturiy ta'minotida qayta ishlanib, deskriptiv va korrelyatsion tahlil amalga oshirildi.

**Natijalar. Platformalarni qo'llash tajribasi va qamrov. O'qituvchilar tajribasi**: So'rovnomada ishtirok etgan 80 o'qituvchining 70 foizi ilg'or xalqaro platformalar bilan ma'lum darajada tanish bo'lib, ulardan 30 foizi ushbu platformalarni faol qo'llab keladi. Qolgan 20 foizi platformalar haqida ma'lumotga ega bo'lsa-da, ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha tajriba vaqti yetarli emasligini aytgan.

**O'quvchilar faolligi**: 100 nafar o'quvchidan 85 nafari ilg'or platformalarda ro'yxatdan o'tganligi, 60 nafari muntazam kurslarda qatnashganligi aniqlangan. O'quvchilar, asosan, Coursera va EdX kabi xalqaro sertifikat beruvchi platformalar bilan qiziqqan [5].

**Metodik qo'llab-quvvatlash holati.** Metodik qo'llanmalar: O'qituvchilarning aksariyat qismi platformalarni qo'llashda rasmiy metodik qo'llanmalardan foydalanishi, lekin mahalliylashtirilgan (o'zbek, qoqaqalpoq tilidagi) metodik qo'llanmalarning kamligi biroz qiyinchilik tug'dirishini ta'kidladi.

Texnik moslashuv: Ayrim ta'lim muassasalarida internet tezligining pastligi, kompyuter sinflarining yetarli darajada ta'minlanmaganligi integratsiya jarayonini sekinlashtirishi aniqlangan.

**Statistik tahlil natijalari.** Deskriptiv tahlil: Platforma qo'llash tajribasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich o'qituvchilarda 3 yilni tashkil etdi, o'quvchilar esa bir yildan kamroq vaqt davomida faol foydalanishgan (0,8 yil).

Korrelyatsion tahlil: O'qituvchilarning platformaga egalik darajasi bilan ularning raqamli kompetensiya darajasi o'rtasida $r=0.68$ ($p<0.01$) darajasida mustahkam bog'liqlik aniqlandi. Bu, ilg'or xalqaro platformalarni o'zlashtirish uchun raqamli ko'nikmalar muhimligini ko'rsatadi [6].

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ilg'or xalqaro platformalarni o'quv-metodik jarayonga integratsiya qilishning samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. O'qituvchilarning raqamli savodxonligi yuqori bo'lganda, platformalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyati ortadi. Shuningdek, faqat texnik jihatlarini emas, balki onlayn-pedagogika tamoyillarini to'g'ri qo'llash zarur. Har bir platformaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, mahalliy (o'zbek, qoqaqalpoq tilidagi) metodik qo'llanmalar yaratish zarur. Aks holda, pedogoglar va o'quvchilar orasidagi platformani to'g'ri ishlatishdagi nomuvofiqlik o'qitish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Platformalarni qulay qo'llash uchun barqaror internet, zamonaviy kompyuter texnikasi va doimiy texnik ko'mak talab qilinadi. Ta'lim muassasalari bu masalalarda yetarli resurslarni ajratishi kerak [7].

Ilg'or platformalar orqali interaktiv videoma'ruzalar, testlar, onlayn forumlar va guruh loyihalari hamkorlikda amalga oshirilsa, o'quvchining faolligi ortadi [8].

Doimiy bsb, chsb baholash, tezkor fikr-mulohaza (feedback) va reyting asosida rag'batlantirish o'quv jarayonini takomillashtiradi.

Yuqoridagi muhokamalar shuni ko'rsatadiki, ilg'or xalqaro platformalarni o'quv-metodik ta'minotga integratsiya qilish zamon talabi bo'lib, bu jarayonni tizimli yondashuv bilan amalga oshirish zarur.

**Xulosa va Tavsiyalar.** Ilg'or xalqaro platformalarni o'quv-metodik ta'minot jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilar va o'qituvchilar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu platformalar nafaqat bilim olish va o'qitish sifatini oshiradi, balki xalqaro darajadagi o'quv kurslari, xalqaro standartlarga mos sertifikatlash mexanizmlari hamda ta'limdagi raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari, ayniqsa, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, metodik qo'llanmalarni mahalliylashtirish hamda texnik infrastrukturani yaxshilash juda muhimligini tasdiqlaydi [9].

**Tavsiyalar.** Raqamli savodxonlikni oshirish. O'qituvchi va o'quvchiga mo'ljallangan maxsus o'quv-seminarlar, treninglar va amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish zarur.

Metodik qo'llanmalar tayyorlash. Platformalar bo'yicha o'zbek, qoraqalpoq tilidagi amaliy qo'llanma, videodarslar va instruktsiyalar ishlab chiqish hamda muntazam yangilab borish lozim.

Infrastruktura va texnik qo'llab-quvvatlash. Ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter sinflari, yuqori tezlikdagi internet va texnik yordam xizmatlari bilan ta'minlanishi kerak.

Motivatsiya mexanizmlarini joriy qilish. Kurslarni tugatgan o'qituvchi va o'quvchilarni rag'batlantirish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va boshqa ta'lim muassasalariga tarqatish maqsadga muvofiq [10].

Davlat va xususiy sektor hamkorligi zarur. Ilg'or platformalarni ta'limda qo'llash jarayonini tezlashtirish maqsadida, dasturiy ta'minot yetkazib beruvchi kompaniyalar, innovatsion markazlar va grant mablag'larini jalb qilish zarur.

Yakuniy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ilg'or xalqaro platformalarni o'quv-metodik ta'minotga keng miqyosda integratsiya qilish orqali barcha bosqichlardagi ta'lim jarayonining sifatini tubdan yaxshilash va raqobatbardosh yoshlarni tayyorlashga erishish mumkin.

## Adabiyotlar

1. Kenesbayev A. The impact of digital educational platforms on the quality of education. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(1), 541-545. 2025.
2. Allambergenova M.X. Informatikada interaktiv o'quv majmualar yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish: ped. fan. nom.…diss. -T.: 2012.
3. Fayzieva M.R. O'quv jarayoniga moslashuvchi web tizimlarni yaratish. // Ped. fan. fals. dokt. …diss. avtoreferati. - Toshkent: 2017.
4. Bates T. Teaching in a Digital Age. BCcampus. 2019.
5. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. AU Press. 2008.
6. Toshpo'latova N. O'zbek tilida o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish va ularning ta'limdagi o'rnini tahlil qilish. Milliy ta'lim jurnali, 9(3), 2017. 22-30.
7. Yelibayevich B.J. Innovative Methods of Teaching Informatics in Schools. 2023.
8. Атаджанов Х., Кунназаров А., Балтабаев Ж. (2023). WEB-Дастурлашни мустақил таълим орқали ташкил қилишнинг интерактив тизимларидан фойдаланиш. Quality of teacher education under modern challenges, 1(1), 1135-1138.
9. Утепбергенова А.Т., Алламбергенова М. Развитие информационного общества в Узбекистане. Донецкие чтения 2018: образование, наука, инновации, культура и вызовы современности. –С. 394-395.
10. Утепбергенова А.Т. Сущности развития электронного правительства. Интернаука, (21-1), 2018. 23-24.

**REZYUME.** Ushbu maqolada o‘quv-metodik ta’minotlarga ilg‘or xalqaro platformalarni integratsiya qilish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy raqamli platformalarga xalqaro platformalarni integratsiya qilish orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

**РЕЗЮМЕ**. В статье анализируются методы интеграции передовых международных платформ в учебно-методическое обеспечение. В исследовании рассматривались возможности повышения качества образования путем интеграции международных платформ в национальные цифровые платформы.

**SUMMARY.** This article analyzes the methods of integrating advanced international platforms into educational and methodological support. The study examines the possibilities of improving the quality of education by integrating international platforms into national digital platforms.

## MEKTEP OQÍWShÍLARÍNDA ERKIN PIKIRLEW HÁM ILIMIY IZLENIWShEŃLIKTI QÁLIPLESTIRIW USÍLLARÍ

**S.T.Kosnazarov** – *assistent oqıtıwshı*
*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı*

**Tayanch so‘zlar:** ilm, bilim, metod, kreativ, kognitiv, kommunikativ.
**Ключевые слова:** наука, познание, метод, творческий, познавательный, коммуникативный.
**Key words:** science, cognition, method, creative, cognitive, communicative.

**Kirisiw.** Zamanagóy bilimlendiriwdiń búgingi kúndegi tiykarǵı maqseti oqıwshılardıń ilimiy bilimin qáliplestiriw, kreativlikti rawajlandırıw esaplanadı. Házirgi waqıtta hár birimizdiń jetiskenlikke erisiwimizde tiykarınan qıyın turmıslıq jaǵdayǵa iykemlesiwsheńlik hám analitikalıq pikirlewdi arttırıw úlken áhmiyetke iye. Mektep oqıwshıları arasında ilimiy pikirlewdi qáliplestiriw oqıw procesin shólkemlestiriwde aktiv izleniwdi úzliksiz túrde engiziw zárúr.

Sonıń menen birge, ol jańa ilimiy bilimlerge iye bolǵan «oylap tabıwshı» jaǵdayına ózgeredi hám kreativ izleniw usılların úyrenedi. Ximiya páni ushın oqıwshılarǵa hár túrli qosımsha dógereklerdi shólkemlestiriw procesinde oqıtıwshı, tiykarınan, wazıypalar hám tapsırmalardı durıs tańlaw esaplanadı. Oqıtıwshınıń wazıypalarınıń biri klassta oqıwshılar ushın jańa shınıǵıwdı úyreniwde hár túrli mashqalalardıń sheshimin tabıw procesinde hár túrli bilimlendiriw usılların nátiyjeli shólkemlestiriwden ibarat. Oqıwshılardıń ilimiy-metodikalıq qábiletin qáliplestiriw múmkin, biraq, kreativ shaxstı qáliplestiriw ushın ortalıqtı payda etiw zárúr.

**Tiykarǵı bólim.** Mektep bilimlendiriw sistemasında ximiya pánine tiyisli talaplar tiykarında bilimlendiriw standartları islep shıǵıladı. Bilimlendiriw standartları oqıw kursınıń ózgermes quramın belgileydi hám bilimlendiriw standartları tiykarında dúzilgen isshi baǵdarmalar túrli qánigeliklerde qollanıladı.

Tiykarınan, mektepler ushın dúzilgen tálim standartları usınıs etilgen tiykarǵı xızmet túrlerin islep shıǵarıwdı da óz ishine qamtıydı. Sonıń menen birgelikte, baslawısh mektepler ushın bilimlendiriw standartlarınıń mazmunı, birinshiden, ulıwma orta bilim beriwdiń pán mazmunı, ekinshiden, oqıwshılardıń psixologiyalıq jas ózgesheliklerine baylanıslı. Hár bir oqıw predmetiniń tiykarı átiraptaǵı ilimiy bilimlerdiń nátiyjesi esaplanadı. Sonlıqtan da, mekteplerde oqıw, jazıw, sanaw kónlikpelerin qáliplestiriw menen baylanıslı bolǵan bilimlendiriw túrleri, metodları, oqıwshılardıń ilimiy bilim hám tárbiyalıq kórsetkishlerin rawajlandırıp baradı. Sonıń menen birge, universal tárbiyalıq xarakterge iye barlıq bilimlendiriw subyektleri qáliplesedi.

Anıq hám tábiyiy pánlerde kognitiv oqıw túrleri jetekshi áhmiyetke iye. Usı tiykarda mektepler ushın tálim standartlarında hár túrli pánlerge tiyisli maqset, oqıw nátiyjelerine qoyılatuǵın talaplar, oqıwshılardıń bilim alıwına tiyisli bolǵan kórsetkishler ústemlik etedi. Oqıwshılardıń balalıqtan, jas-óspirimlik dáwirine ótiwde (11 jastan, 14-15 jas aralıǵı) kognitivlik xızmet rawajlanıwın baslaydı, bunda oqıwshılar logikalıq hám refliktiv pikirlerdi ózlestire baslaydı. Jas óspirimler arasında shaxstıń ózine tánligi, kommunikativ hám kognitiv pazıyletlerdi rawajlandırıwdı támiynleytuǵın universal kórsetkishlerdi qáliplestiriw birinshi orında turadı [4].

Tiykarınan, oqıwshılarda ulıwma bilim beriw mekteplerinde sabaq procesinde mashqalalardı úyreniw, soraw beriw, baqlaw arqalı tájiriybeler ótkeriw, juwmaq shıǵarıw, analiz ete alıw, óz pikirlerin qorǵay alıw kónlikpelerin payda etiw arqalı ilimiylikke baǵdarlanadı. Oqıwshılardaǵı bul kónlikpeler kognitiv belsendilikti jetilistiredi. Sonıń menen birgelikte, pán ushın kognitivlik hám kommunikativlik jetekshilik etedi. Kognitivlik háreket jetekshilik etetuǵın oqıw túrlerine ximiya, biologiya, fizika pánleri kiredi. Kognitiv háreket tiykarında oqıwshılardıń bilim alıwındaǵı túsindiriw, táriyplew, ózlestiriw usılları boyınsha ilimiy bilimlerin qáliplestiremiz [1].

Kommunikativlik háreket tiykarında ózlestiriledi. Kommunikativlik bilim beriwde awızeki hám jazba formalar, sóylew stilistikası, leksikologiya, básekelesiw usılları ústinlikke iye boladı. Demek, bilimlendiriw tarawları ushın jaratılatuǵın bilimlendiriw standartları tiyisli bolǵan pánlerdiń maqsetin belgileydi. Sonıń ishinde ximiya pánine tiyisli bolǵan mekteplerge arnalǵan bilimlendiriw standartı 4 bólimnen ibarat esaplanadı:

1. Oqıw predmetiniń ózine tán qásiyetlerin esapqa alıp pánniń ulıwmalıq maqsetlerine anıqlıq kiritiwshi bilim, kónlikpe tiykarında ulıwma hám arnawlı usılların qáliplestiriw. Úlgi pán baǵdarlamalar mektep oqıwshılarına ximiya pánin úyretiw qolaylı bolıw ushın tábiyiy pánler aralıq baylanıslar tiykarında islep shıǵılǵan.

2. Bul basqıshta ulıwma pán mazmunınıń tiykarǵı ózegi bolǵan qaǵıydaları ayqınlastırıladı. Ximiya pániniń tiykarǵı ózegi ximiyalıq elementler, teńlemeler, reakciyalar esaplanadı.

3. Ximiya bilimlendiriw mazmunına anıqlıq kirgiziw basqıshı. Bul basqıshta úlgi tematikalıq baǵdarlama shólkemlestiriwdiń tiykarǵı basqıshın, oqıtıw usılların anıqlaw, oqıtıwdaǵı pánler aralıq baylanıs, bilim beriwdegi logikalıq tásir kórsetkishlerin, oqıwshılardıń jas qásiyetlerin esapqa alǵan halda dúziledi.

Bul basqıshta tematikalıq jobalardı islep shıǵıw tómendegi qaǵıydalar tiykarında ámelge asadı:

–ulıwma bilim beriw mekteplerinde oqıwshılardı kásipke baǵdarlaw, usı tiykarında kognitiv hám estetikalıq mádeniyattı qáliplestiriw, qorshaǵan ortalıq hám óziniń densawlıǵın jaqsılaw, qorǵaw, kúndelikli turmıs ámeliyatında zárúrli bolǵan mazmunlardı ózlestiriw;